



REFLEKSIV TOPSHIRIQLAR VA O'Z-O'ZINI BAHOLASH VOSITALARI ORQALI BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Zuxra Agzamovna Ikanova

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Tel: 773520017

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlar va o'z-o'zini baholash texnologiyalarining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida diagnostika, refleksiv topshiriqlar, o'z-o'zini baholash, peer feedback, video-refleksiya, takroriy nutqiy faoliyat va yakuniy baholashdan iborat metodik ketma-ketlik taklif etiladi. Bunday tizim talabalarning nafaqat nutqiy xatolarini aniqlash, balki ularning sabablarini anglash, kommunikativ strategiyalarni tanlash va kasbiy vaziyatlarda nutqdan maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari refleksiv metodik tizim an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan kasbiy nutq, kommunikativ faollik va refleksiv kompetensiyani rivojlantirishda samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: refleksiv topshiriq, o'z-o'zini baholash, peer feedback, video-refleksiya, kasbiy nutq, kommunikativ faollik, refleksiv kompetensiya.

Аннотация

В тезисе анализируются возможности рефлексивных заданий и технологий самооценивания в развитии профессионально-речевой компетенции будущих учителей английского языка. Предлагается методическая последовательность, включающая диагностику, рефлексивные задания, самооценивание, взаимную обратную связь, видео-рефлексию, повторную речевую деятельность и итоговое оценивание. Такая система позволяет студентам не только выявлять речевые ошибки, но и осознавать их причины, выбирать коммуникативные стратегии и целенаправленно использовать речь в профессиональных ситуациях. Результаты исследования показывают, что рефлексивная методическая система является более эффективной по сравнению с традиционными методами обучения в развитии профессиональной речи, коммуникативной активности и рефлексивной компетенции.

Ключевые слова: рефлексивное задание, самооценивание, взаимная обратная связь, видео-рефлексия, профессиональная речь, коммуникативная активность, рефлексивная компетенция.

Abstract

This thesis analyses the potential of reflective tasks and self-assessment technologies for developing the professional speech competence of prospective English language teachers. A methodological sequence is proposed, including diagnosis, reflective tasks, self-assessment, peer feedback, video reflection, repeated speech performance, and final assessment. Such a



system enables students not only to identify their speech errors but also to understand their causes, select appropriate communication strategies, and use professional speech effectively in pedagogical situations. The findings demonstrate that the reflective methodological system is more effective than traditional teaching methods in developing professional speech, communicative activity, and reflective competence.

Keywords: reflective task, self-assessment, peer feedback, video reflection, professional speech, communicative activity, reflective competence.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy nutqini rivojlantirish jarayonida faqat tashqi baholashga tayanish yetarli emas. Talabaning o'z nutqini mustaqil kuzatishi, xatolarini aniqlashi va keyingi faoliyatini rejalashtirishi kasbiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Oliy pedagogik ta'lim amaliyotida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy nutqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ko'pincha an'anaviy topshiriqlar va tashqi (o'qituvchi tomonidan beriladigan) baholash mexanizmlari bilan cheklanib qolmoqda. Biroq, ta'kidlaganimizdek, faqatgina tashqi baholash va xatolar ustida ishlash bo'lajak o'qituvchida mustaqil tahlil qilish, o'z-o'zini nazorat qilish hamda nutqiy strategiyalarni moslashtirish ko'nikmalarini yetarlicha shakllantirmaydi. Kasbiy-pedagogik faoliyatda o'qituvchining nutqi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ta'lim muhitini va talabalar bilib olish faoliyatini boshqaruvchi asosiy quroldir. Shu sababli, talabalarning o'z nutqiy faoliyatini mustaqil kuzatishi, xato va kamchiliklarini anglagan holda bartaraf etishi hamda kelgusi nutqiy strategiyani aniq rejalashtirishi kasbiy rivojlanishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishda refleksiv topshiriqlar va o'z-o'zini baholash vositalaridan amaliy mashg'ulotlarda tizimli foydalanish muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot materiallarida amaliy mashg'ulotlarda talabalar nutqidagi xatolar ko'pincha o'qituvchi tomonidan baholanishi, biroq o'z-o'zini tahlil qilish va refleksiya jarayonlari tizimli tashkil etilmaganligi qayd etiladi.

Shu asosda quyidagi metodik ketma-ketlik taklif etiladi:

Diagnostika → Refleksiv topshiriqlar → O'z-o'zini baholash → Peer feedback → Video-refleksiya → Takroriy nutqiy faoliyat → Yakuniy baholash.

Mazkur modelning dastlabki bosqichida talabaning mavjud kasbiy nutqiy kompetensiyasi aniqlanadi. Keyingi bosqichlarda refleksiv topshiriqlar bajarilib, talabalar o'z nutqiy faoliyatini tahlil qiladilar. O'z-o'zini baholash va peer feedback talabaning o'z faoliyatiga boshqa nuqtayi nazardan qarashiga imkon beradi.

Video-refleksiya esa dars yoki nutqiy faoliyatni qayta kuzatish va aniq kamchiliklarni aniqlash imkonini yaratadi.

Tadqiqotda kasbiy nutqiy kompetensiyani baholashning to'rtta asosiy mezonini belgilangan: lingvistik, kommunikativ, pragmatik va refleksiv kompetensiya.

Refleksiv topshiriqlar orqali talabalar nutqiy xatolarini aniqlash bilan bir qatorda, muloqot strategiyalarini ongli ravishda tanlash, fikrni auditoriyaga mos ifodalash va samarali teskari aloqa berish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Tajriba-sinov natijalari refleksiv.



yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tizimning an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatgan.

Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy nutqiy kompetensiyasi 4 ta asosiy mezon va unga mos ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi: Lingvistik mezon: Nutqning grammatik, leksik va fonetik to'g'riligi, soha terminologiyasini aniq qo'llay olish. Kommunikativ mezon: Auditoriya bilan muloqot o'rnatish, pedagogik ko'rsatmalar (instructions)ning soddaligi hamda darsdagi savol-javob mexanizmining oqilonaligi. Pragmatik mezon: Nutqning pedagogik vaziyatga, maqsadga va auditoriya darajasiga mosligi, diskursiv va sociolingvistik moslashuvchanlik. Refleksiv mezon: O'z nutqidagi xatolarni tahlil qila olish, ularning sabablarini tushunish va nutqiy faoliyatini mustaqil tahrir qilish darajasi. Tajriba-sinov mashg'ulotlari ko'rsatdiki, taklif etilgan refleksiv metodik tizim ta'lim oluvchilar faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Talabalar passiv baholanuvchidan o'z kasbiy va nutqiy rivojlanishini ongli boshqaruvchi faol subyektga aylandilar. Video-refleksiya va peer feedback vositalaridan foydalanish talabalarga o'z nutqidagi leksik takrorlar, noo'rin pauzalar hamda murakkab va tushunarsiz iboralardan foydalanish holatlarini tahlil qilish imkonini berdi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarning muloqotiy faolligi oshdi, muloqotga kirishishdagi psixologik va nutqiy to'siqlar bartaraf etildi.

Xulosa

Refleksiv topshiriqlarni o'z-o'zini baholash, peer feedback va video-refleksiya bilan integratsiyalash bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy nutqini rivojlantirish uchun samarali metodik yechimdir. Ushbu yondashuv talabaning passiv baholanuvchi emas, balki o'z kasbiy rivojlanishini boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur metodikani raqamli portfolio va sun'iy intellektga asoslangan refleksiv vositalar bilan integratsiyalash istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2005). Professional Development for Language Teachers. Cambridge University Press.
2. Farrell, T. S. C. (2015). Promoting Teacher Reflection in Second Language Education. Routledge.
3. Farrell, T. S. C. (2019). Reflective Practice in ELT. Equinox.
4. Mann, S., & Walsh, S. (2017). Reflective Practice in English Language Teaching. Routledge.
5. Dewey, J. (1933). How We Think. D.C. Heath.
6. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner. Basic Books.



7. Wallace, M. J. (1991). Training Foreign Language Teachers. Cambridge University Press.

8. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

